

## ZARDUSHTIYLIK DINIDA MEHNAT TARBIYASI VA MAKTAB TA'LIMI MASALALARINING TALQINI

**Valiyev Akbar Xalilovich**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası katta o'qituvchisi*

*E-mail: akbarxon1962@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zardushtiylik dinida mehnat tarbiyasi va maktab ta'limi masalalarining talqini mavjud adabiyotlar asosida tahlil qilinib, unda ta'lim-tarbiya zardushtiylik hayotida muhim o'rin egallaganligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zardushtiylik, Avesto, otashkada, halol mehnat, ishatgoh (shifoxona), darmogoh (poliklinika), dorixona.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется интерпретация трудового воспитания и школьного образования в зороастризме на основе существующей литературы, подчеркивается, что вопросы образования и воспитания занимали важное место в жизни зороастрийцев.*

**Ключевые слова:** *зороастризм, Авеста, честный труд, ишатгах (больница), дармангах (поликлиника), дорихона (аптека).*

**Abstract.** *This article analyzes the interpretation of labor education and school education in Zoroastrianism on the basis of existing literature, it is emphasized that the issues of education and upbringing occupied an important place in the life of Zoroastrians.*

**Key words:** *Zoroastrianism, Avesta, honest work, ishatgah (hospital), darmangah (clinic), dorikhona (pharmacy).*

### KIRISH

Insoniyat maktab ta'limi va uning mehnat faoliyatining pedagogik asoslari qadimgi davrlarda yaratilgan. Bundan qariyb 3000 yil avval Zardusht «Avesto» muqaddas kitobida mehnatni barcha boyliklarning manbai deb hisoblagan. Ayniqsa, dehqon, bog'bon va chorvadorlar mehnatining o'рни va ahamiyati alohida ta'kidlanadi. «Avesto»ga ko'ra mehnat tufayli, nafaqat hudud obod bo'ladi, balki insonning o'zi ham rivojlanadi. Zardushtiylik yoshlar tarbiyasi va bilimiga katta e'tibor berganlar.

Zardushtiylikda halol mehnatning o'рни va ahamiyatiga alohida urg'u beriladi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, faqat halol mehnat bilan orttirilgan boylik uning egasining mulki hisoblanishi mumkin. Birovning mehnati evaziga yashayotgan odamlar yashash huquqiga ega emasligi takidlanadi.

Halol mehnatkash insonni tarbiyalashda zardushtiylik diniga ko'ra oila muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan «Avesto»da jismonan sog'lom, ruhiy barkamol, halol, mehnatsevar, mard, faol jamiyat a'zosini tarbiyalashda er va xotinning birgalikdagi mas'uliyati alohida qayd etilgan.

«Avesto»da mehnat, maktab ta'limi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi g'oyalar dunyoning yirik dinlari – islom va nasroniylik ta'limotlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'tmish davrning ko'plab mutafakkirlari, pedagoglari va hozirgi zamon o'qituvchilari uzoq tarixiy davrda insonning o'z taqdirini o'zi belgilash vositasi sifatida mehnat va maktab ta'limiga e'tibor qaratishgan. Buning sababi shundaki, ijtimoiy taraqqiyot ko'p jihatdan yosh avlodning mehnat va intellektual tayyorgarligiga bog'liq.

Yosh avlod tarbiyasi hamisha kishilik jamiyatini yanada rivojlantirishning nafaqat zaruriyati, balki sharti ham bo'lib kelgan. «Avesto»da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan yovuzlikdan qutulishi mumkinligi g'oyasi yotadi. Dehqonchilikdagi mehnat yaxshilikning yuzaga chiqishida va insonni qayta tarbiyalashda asosiy omil, Axura Mazda qonuniga bo'ysunish hisoblanadi. «Kim g'alla eksa oliyjanobdir. Falla ekkan kishi ezgulik urug'ini sochadi». Demak, mehnat va tabiiy ehtiyoj tufayli insonlar birga yashashni ilgari suradi.

Zardushtiylarda otashkada jamiyatning ijtimoiy va ma'rifiy hayotida alohida o'rin tutgan. Ularda ta'lim muassasalari bilan bir qatorda tibbiyot muassasalari ham bo'lgan: ishatgox (shifoxona), darmongox (poliklinika); dorixonalar, shahar dogustari (sudya), vaqf boshlig'i va jamoa oqsoqolining xonalari joylashgan. Otashkada ixtiyorida dijnabishtlar deb nomlangan maxsus idoralar bo'lib, ularda turli hujjatlar va diniy kitoblar saqlanadigan xonalar bo'lgan.

Bu yerda Zardusht qasidalari ko'p nusxada ko'chirilib, alohida kitob holda saqlangan, kitobdorlar (kitob saqlovchilari), o'nlab avestoshunoslar, nokili(kitobshunoslar) va roviylar o'z faoliyatini amalga oshirgan. Bir so'z bilan aytganda, otashkada – zardushtiylik dinining ibodatxonasi, targ'ibot, yagona xudo e'tiqodiga da'vat qilish, turli diniy marosimlarni o'tkazish, din qonunlarini odamlarga yetkazish bilan birga, ilm-fan, jamoatchilik fikrini o'rganish va ma'naviyat markazlari bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda turli ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy masalalar hal etilgan [4: 123].

«Avesto»da ta'lim tizimining turli bosqichlarida kitob o'qishning afzalligi haqida «Ko'ngil bilan o'qigan kishi poklik va aqli rasolikga ega bo'ladi» yoki «Xaoma farzand kutayotganlarga ajoyib farzandlarni ato etadi va ular solih vorislar bo'lishadi. Xaoma naski (kitoblarni) o'rganganlarning barchasiga shon-sharaf va donolik beradi» deyiladi [3: 73]. Bu zardushtiylar orasida kitob ilm olishning asosiy vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Zardushtiylar orasida boshlang'ich ta'lim 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab olgan ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan.

Yetti yoshgacha bolalarga tizimli ta'lim berilmagan, faqat zardushtiylikning ma'lum qonunlari bilan tanishtirilgan.

Etti yoshga to'lgan bola muqaddas belgilar bilan maxsus kiyim kiygan.

Yetti yoshli bolaning yaxshi va yomonni (yaxshilik va yovuzlikni) ajrata olishini hisobga olib, unga ma'lum vazifalar yuklangan.

Zardushtiylik dinida farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berilganidan quyidagi so'zlar dalolat beradi: «Ey, Axura Mazda, sen o'z ruhingni turli narsalarda gavdalantirgansan, aql-idrok bergansan, tanaga hayot ato etgansan. Har kim o'ziga yoqadigan yo'lni tanlashi uchun amallar va o'gitlar yaratildi, yoki «Ta'limni hayotning eng muhim ustuni deb bilish kerak.

Har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, avvalo odob-axloqni, o'qishni, keyin yozishni o'rganib, yuksak pog'onalarga erishsin»[5:200].

Zardushtiylik ta'lim muasasalarining madrasalar turidagi boshlang'ich ta'limning yakuni natijasi san'atning 7 turini mukammal egallash hisoblangan. Bular: o'qish, yozish, sanash, kamondan otish, otda chopish, diniy qonunlar, qiroat (maxsus intonatsiya bilan o'qish) va qo'shiq aytish hisoblangan.

Zardushtiylik jismoniy va mehnat tarbiyasini, jismoniy va mehnatga chiniqtirishni nazarda tutishib, asosiy maqsadlari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va yosh avlodni mehnatga tayyorlash edi.

O'g'il bolalarga kurash, ot minish, qoramol boqish va ularni ko'paytirish, tuya va otlarni parvarish qilish, ularni boshqarish, qo'y boqish, chorva mollarini yirtqichlardan va qarochilardan himoya qilish uchun 50 dan ortiq qurol-yarog'lardan foydalanish, ot minish va otda yurushni va yana harbiy hunarmandchilikning 32 turini o'rgatishgan.

Bu holat xususiy va boshlang'ich ta'limning uzluksizligidan dalolat beradi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodning kamolotga yetishida alohida ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Zardushtiylikning ta'lim tizimida bilimlarni o'zlashtirish, dars olish va dam olish vaqtlarining aniq tarifi ham diqqatga sazovordir.

«Ilmni kunning boshida va oxirida, kechani boshida va oxirida olishi, aql-idrokka to'la bo'lishi, oxir-oqibat xudolarni ulug'laydigan, ular sharafiga samimiy so'z aytishi kerak. Va shu tariqa ular bilimlarini oshirdilar».

«U kunning o'rtasi va kechasi yaxshi dam olishi kerak, shundan keyin o'tmish donishmandlarining barcha merosini o'zlashtirish uchun ilm yo'lida harakat qilishi kerak» [2:121].

Ular vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat va tadbirkorlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib, yosh avlodda rostgo'ylik, mehr-oqibat, xayrixohlik kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishga intilishgan[1: 81].

Boshlang'ich talimning majburiy bo'limlari: o'qish va yozish, sanash va yulduzlar haqidagi fan (arifmetika va astronomiya), kamondan o'tish, ot minish (harbiy bilim), diniy qonunlarga rioya qilish, o'qish va qo'shiq aytish (musiqqa).

Xulosa

Shunday qilib, zardushtiylik dinida yoshlarning mehnat tarbiyasi va maktab talimi tizimining tahlili shundan guvohlik beradiki, ulardagi urf-odatlar, ananalar, marosimlar kabi yorqin rang-barang shakllar mazmunining o'ziga xos xususiyatlarining insonparvarligidan dalolat beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) /Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М. В. Чистякова. СПб., 2005.с-81.
- 2.«Avesto». Tarixiy-adabiy yodgorlik. A. Mahkam tarjimasi T.: Sharq nashriyoti - matbaa konserni. 2001.b-121
- 3.Askarov A. A. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 1994 b -73.
- 4.Jabborov I. M. Antiq madaniyat va ma'naviyat hazinasi. T.: «O'zbekiston». 1999. B-1235. Заратустра. Учение огня. Гаты и молитвы. - М.: Эксмо, 2008 с - 200.